

## SABZAVOT YOKI BOG' LEBEDASI O'SIMLIGINI YETISHTIRISH TARTIBI VA DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

**Jahbaraliyev Qudratillo Raxmatillo o'g'li**

AQXAI talabasi

Elektron pochtasi:qudratillojahbaraliyev06@gmail.com

+998914766746

**Saksonboyeva Mushtariy Lochinbek qizi**

AQXAI talabasi

Elektron pochtasi:mushrariysaksonboyeva@gmail.com

+998973462616

**To'xtasinova Rayxongul Avazbek qizi**

AQXAI talabasi- +998889820519

Elektron pochtasi:dhdhxdhdhd95@gmail.com

**Ismoilova Ma'mura Rahmonjon qizi**

AQXAI talabasi

Elektron pochtasi:mamuraismoilova05gmail.com

+998914794505

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10897060>



**Anotatsiya.** *Atriplex hortensis* o'simligining kelib chiqishi, yashash sharoyiti, ko'payish usullari, marfalogiyasi hamda anatomiyasi va shuni ham ta'kidlab o'tishimiz kerakki dorivor o'simlik bo'lganligi sababli jahon miqyosida juda katta e'tiborga ega o'simliklar ekanligi to'g'risida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar.** *Atriplex hortensis* Sho'radoshlar oilasi, gul, meva, urug', barg. *Atriplex hortensis* L., Sho'radoshlar (Chenopodiaceae).

**Geografik tarqalishi.** Bog' Lebedasi AQSh, Janubiy Amerika, Yevropa, Kavkaz va Rossiyada keng tarqalgan.

**Biologiyasi.** Sabzavot lebeda o'simligi urug'i +5+10°C da una boshlab, o'simliklarini o'sib-rivojlanishi uchun +15+25°C harorat zarur. Shuningdek, qisqa muddatli sovuqlarga bardosh beradi, lekin uzoq muddatli -1°C haroratda o'simliklar (barg va yon shoxlari) nobud bo'ladi.

**Xususiyatlari va qo'llanilish sohasi.** Sabzavot lebedasini yosh bargi iste'mol qilinadi. Sabzavot lebedasi - sovuqqa va qisqa muddatli qurg'oqchilikka chidamli, kam sho'rlangan tuproqlarda o'sadigan bir yillik o'simlik. O'suv davri 140 kun. Uning poyasi baquvvat, piramidasimon shaklda, balandligi 50 sm dan 180 sm gacha. Bargi keng yuraksimon, uzun-oval, rangi och-yashil, to'q-yashil, qizil va pushti, oq tuk bilan qoplangan. Urug'i qora rangli, juda mayda, 1-2 mm

diametrli, 1000 dona urug' vazni 4-6 g bo'lib, urug' unuvchanligini 6 yilgacha saqlaydi. Yosh barglar hosilli  $2 \text{ kg/m}^2$ .

Sabzavot lebedasi yosh barg va yon shoxlari tarkibida qand (3% gacha), vitamin S (50 mg%) va RR, E, A va V, makro va mikroelementlar (Fe, Cu, Zn, Mn, P, K, Ca), mineral tuzlar, oqsilga boy.

Yetishtirish hududi va tuproq-iqlim sharoitiga bo'lgan talabi. O'zbekistonning markaziy va janubiy hududlardagi o'tloqi-botqoq va bo'z tuproqli unumdor suv bilan ta'minlangan maydonlarda yetishtirishga mos.

Sabzavot lebedasi neytral yoki bir oz ishqoriy reaksiyali va sho'rlangan tuproqlarda o'sadi. O'simlik namni yaxshi ko'radi va yuqori tuproq namligini (80-85% NV) talab qiladi.

Kartoshka, bodring, poliz ekinlari va don-dukakli o'simliklar sabzavot lebedasiga yaxshi o'tmishdosh ekin hisoblanadi. Ushbu ekin ekishdan oldin piyoz, ko'k no'xot va sabzilarni eksa ham natijasi yaxshi bo'ladi. U ekilgan yerga oradan kamida 3 yil o'tgandan so'ng ekish mumkin.

Parvarishlash. Sabzavot lebedasi urug'lari erta bahorda 10 fevraldan 10 martgacha, takroriy muddatda 20 iyuldan 10 avgustgacha to'g'ridan-to'g'ri ochiq dalaga ekiladi. Urug'ni ekish aniq ekadigan seyalkalarda, qator oralarni 70 sm va qatordagi o'simliklar orasidagi masofani 25-30 sm qilib olib boriladi. Urug'ni quruq holda nam tuproqqa 1-1,5 sm chuqurlikka ekadilar.

Bog' lebedasi pishish muddati nav va duragay biologiyasiga bog'liq bo'lib, 40-50 kunni tashkil etadi. O'zbekiston sharoitida iste'molga erta bahorda ekilganda - martdan-iyungacha, takroriy muddatda ekilganda - sentyabrdan-dekabrgacha barg mahsulotlarini yetishtiriladi.

O'simliklar orasi 10-15 sm, so'ngra 25-30 sm masofa qoldirib yagona qiladilar. Olib tashlangan o'simliklar ovqatga ishlatiladi. Urug'lar unib so'ng egatning oralari birinchi kultivatsiya, ikkinchi kultivatsiya ekin bir sug'orilgandan so'ng o'tkaziladi. Ya'ni, urug'lar unib chiqqandan keyin 1-1,5 hafta o'tkazib birinchi yalpi ishlov beriladi. Bunda qator oralari KRN-4,2 kultivator bilan 15-16 sm chuqurlikda kultivatsiya qilinib, o'simlik atrofi yumshatiladi, mineral o'g'itlar bilan oziqlantiriladi va suv beriladi, 20-25 kundan keyin yana bir marta yalpi ishlov beriladi.

Sabzavot lebedasi bo'z tuproqli yerga 120-150 azot, 80-100 fosforli, 40-50 kaliyli o'g'itlarni solish tavsiya etiladi. Bunda, fosforli o'g'itlar (yillik miqdoring 70-75%) va kaliyning hammasi asosiy haydashdan so'ng, fosforli o'g'itlarning qolgan qismi - ekish oldidan solinadi. Azotli o'g'itlar o'suv davrida ikki bo'lib beriladi: yaganadan so'ng, 2-3 ta naqiqiy bargi chiqqanida beriladi.



Sug'orish bo'z tuproqli yerlarda 8-10 marta, sizot suvlari yuza joylashgan yerlarda 6-8 marta suv berish tavsiya etiladi. Sug'orish me'yori gektariga 400 m<sup>3</sup>.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki sabzavot lebedasi yosh barg va yon shoxlari tarkibida qand (3% gacha), vitamin S (50 mg%) va RR, E, A va V, makro va mikroelementlar (Fe, Cu, Zn, Mn, P, K, Ca), mineral tuzlar borligini, oqsilga boy ekanligi, yosh barglari iste'mol qilinishini o'rgandim.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Ma'ruza matn "Noananaviy ekinlar seleksiyasi va urug'chikigi" AQXAI 2023-yil 20-21-b.
2. Egamov X., Abdumalikov U., Zaparov Z., Tillaboev A., Toshpo'latov A. Yaratilgan yangi g'oz tizimlarining xo'jalikka foydali belgilarini aniqlash. Innovatsiya: fan, ta'lim, texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqololar to'plami. Сборник научно методических статей №1. Andijon. 2018 y. 121-123-b.
3. Мирахмедов Ф.Ш., Абдумаликов У.З., Абдумаликов И., Тиллабоев А. Минеральные удобрения и их рациональное применение на орошаемых землях Узбекистана // Интеграционные процессы мирового научно-технологического развития, Белгород, 2017. С. 19-21.
4. Кимсанов И.Х, Кодиров О.А, Рахимов А.Д, Абдумаликов У.З. Изучение морфологических и хозяйственно-сенных признаков новых сортов хлопчатника в условиях андижанского вилоята// Приоритеты инновационно-технологического развития в условиях глобализации, Белгород, 2019. С. 24-27.

